



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19708109>

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tasavvur jarayonining shakllanish bosqichlari

Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi –

Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: xilolaibroximovatalaba@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-7916-0482>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tasavvur jarayonining shakllanish bosqichlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tasavvur tushunchasining psixologik mohiyati, uning rivojlanish dinamikasi hamda o'quv faoliyati bilan bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, tasavvurning reproduktiv va ijodiy shakllari, ularning boshlang'ich ta'lim jarayonidagi o'rni ilmiy manbalar asosida asoslab beriladi. Tahlil asosida berilgan ma'lumotlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tasavvurni rivojlantirishning muhim bosqichlarini aniqlash imkonini beradi.*

***Kalit so'zlar:** tasavvur, kichik maktab yoshi, ijodiy fikrlash, reproduktiv tasavvur, psixik rivojlanish, ijodiy tasavvur, o'quvchi, boshlang'ich ta'lim.*

Этапы формирования процесса воображения у учащихся младшего школьного возраста

***Аннотация.** В данной статье теоретически анализируются этапы формирования процесса воображения у учащихся младшего школьного возраста. Раскрываются психологическая сущность понятия воображения, динамика его развития, а также его связь с учебной деятельностью. Кроме того, на основе научных источников обосновываются репродуктивные и творческие формы воображения и их роль в процессе начального образования. Результаты исследования позволяют определить ключевые этапы развития воображения у учащихся младшего школьного возраста.*

***Ключевые слова:** воображение, младший школьный возраст, творческое мышление, репродуктивное воображение, психическое развитие, творческое воображение, ученик, начальное образование*

Stages of the formation of the imagination process in primary school-aged students

Annotation. *This article provides a theoretical analysis of the stages involved in the formation of the imagination process in primary school-aged students. The psychological essence of the concept of imagination, its developmental dynamics, and its relationship with learning activities are examined. Additionally, the reproductive and creative forms of imagination, as well as their role in the process of primary education, are substantiated based on scientific sources. The research findings make it possible to identify the key stages in the development of imagination in primary school-aged students.*

Keywords: *imagination, primary school age, creative thinking, reproductive imagination, mental development, creative imagination, student, primary education.*

KIRISH

Hozirgi davr ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim olish darajasini oshirish, balki ularning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda psixik jarayonlarning shakllanishini o'rganish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur jarayonlar ichida tasavvur o'zining murakkab tuzilishi va funksional ahamiyati bilan ajralib turadi. Tasavvur insonning oldingi tajribasi, bilimlari va hissiy kechinmalari asosida yangi obraz va g'oyalarni shakllantirish imkonini beruvchi muhim psixologik mexanizm hisoblanadi.

Kichik maktab yoshi psixik rivojlanishning muhim bosqichi bo'lib, bu davrda o'quvchilarning bilish faoliyati tizimli ravishda shakllanadi va takomillashadi. Aynan shu bosqichda tasavvur jarayoni sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechiradi: u oddiy tasvirlarni qayta tiklash darajasidan asta-sekin ijodiy qayta ishlash va yangilik yaratish bosqichiga o'tadi. Bu esa o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishida, mantiqiy va obrazli fikrlashni uyg'unlashtirishida muhim rol o'ynaydi.

Tasavvurning rivojlanishi o'quv faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, u o'quvchilarning bilimlarni anglash, tasavvur qilish va amaliyotda qo'llash jarayonlarida faol ishtirok etadi. Xususan, reproduktiv tasavvur mavjud bilim va tasvirlarni qayta tiklashga xizmat qilsa, ijodiy tasavvur yangi yechimlar va original g'oyalarni yuzaga keltirishga imkon beradi. Ushbu ikki shaklning uyg'un rivojlanishi boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tasavvur jarayonining shakllanish bosqichlarini ilmiy asosda tahlil qilish, uning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda ta'lim jarayonida samarali rivojlantirish yo'llarini belgilash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Ushbu maqolada aynan mazkur masalalar nazariy jihatdan yoritilib, tasavvurning rivojlanish xususiyatlari va uning boshlang'ich ta'limdagi o'rni tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning intellektual va psixologik rivojlanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Aynan shu davrda bilish jarayonlari tizimi shakllanib, ular orasida tasavvur alohida o'rin egallaydi. Tasavvur o'quvchining nafaqat mavjud bilimlarni o'zlashtirishiga, balki yangi g'oyalarni ishlab chiqishiga ham imkon yaratadi. Ilmiy manbalarda tasavvur bola faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Jumladan, Lev Vygotsky tasavvurni ijtimoiy tajriba asosida shakllanuvchi jarayon sifatida izohlaydi, Jean Piaget esa uni kognitiv rivojlanish bosqichlari bilan bog'laydi. Sergei Rubinstein fikricha, tasavvur inson faoliyatining faol va ijodiy shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolaning maqsadi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tasavvur rivojlanishining bosqichlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Tasavvur inson ongida mavjud tajriba asosida yangi obrazlarni shakllantirish yoki mavjud obrazlarni qayta tiklash jarayonidir. U idrok, xotira va tafakkur bilan uzviy aloqada bo'lib, bilish faoliyatining muhim elementi hisoblanadi.

Tasavvur quyidagi funksiyalarni bajaradi: o'quv materialini yaxlit tasavvur qilish, yangi vaziyatlarni oldindan modellashtirish, ijodiy faoliyatni ta'minlash.

Mazkur jarayon ikki asosiy ko'rinishda namoyon bo'ladi: reproduktiv va ijodiy tasavvur. Reproaktiv tasavvur tayyor bilimlarni tiklashga xizmat qilsa, ijodiy tasavvur yangi mazmun yaratishga yo'naltirilgan.

Kichik maktab yoshi odatda 7–10 yosh oralig'ini o'z ichiga oladi. Bu davrda bolalarda o'quv faoliyati yetakchi faoliyatga aylanadi va ularning psixik jarayonlari faol rivojlanadi. Mazkur yosh davriga xos xususiyatlar: obrazli fikrlashning ustunligi, diqqatning ixtiyoriy shakllana boshlashi, xotiraning faol rivojlanishi, o'quv motivatsiyasining shakllanishi. Bu davrda bola aniq obrazlarga tayangan holda fikrlaydi. Shu sababli tasavvur uning bilimlarni o'zlashtirishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Kichik maktab yoshida tasavvur bosqichma-bosqich takomillashib boradi. Ushbu jarayonni quyidagi ketma-ketlikda ko'rib chiqish mumkin:

1. Boshlang'ich bosqich qayta – tiklovchi tasavvur. Mazkur bosqichda o'quvchi asosan tashqi manbalarga tayanadi. U berilgan axborotni obraz shaklida tiklaydi. Asosiy belgilar: tayyor namunaga asoslanish, obrazlarning aniq va konkretligi, mustaqil o'zgartirishlarning deyarli yo'qligi.

2. Oraliq bosqich – transformatsion tasavvur. Bu bosqichda o'quvchi mavjud obrazlarni qayta ishlay boshlaydi. Ular ustida o'zgarishlar kiritadi va yangi elementlar qo'shadi. Asosiy belgilar: tasavvurning faollashuvi, obrazlarni qayta kombinatsiyalash, ijodiylik elementlarining paydo bo'lishi.

3. Yuqori bosqich – ijodiy tasavvur. Ushbu bosqichda o'quvchi mustaqil ravishda yangi obrazlar yaratadi. Tasavvur tafakkur bilan yanada chuqur integratsiyalashadi. Asosiy belgilar: yangilik yaratish qobiliyati, mustaqil fikrlash, murakkab obrazlar hosil qilish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda o'yin asosidagi yondashuv bolalarning intellektual, ijtimoiy-emotsional, nutqiy va ijodiy rivojlanishida muhim pedagogik omil hisoblanadi. Klassik pedagogik qarashlarda, xususan, L.S.Vygotskiy o'yinni bolaning yaqin rivojlanish zonasini kengaytiruvchi faoliyat sifatida talqin etadi. F.Frebel esa o'yinni bola tabiatiga mos, tarbiyaviy ahamiyatga ega tabiiy jarayon deb baholaydi. Shu jihatdan o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar rivojini ta'minlovchi samarali metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar Singapur maktabgacha ta'lim modelida ham o'yin, amaliy faoliyat va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ustuvor ekanini ko'rsatadi. Mazkur modelda bolalarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur'atlari inobatga olinadi. Montessori yondashuvi ham aynan shu tamoyilga asoslanib, bolani mustaqil faoliyatga yo'naltirish, uning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish hamda o'yin va amaliy mashg'ulotlar orqali rivojlantirishni nazarda tutadi. Singapurdagi ayrim maktabgacha ta'lim muassasalari tajribasi o'yinli, integrativ, interfaol va rivojlantiruvchi ta'lim muhitining samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va tavsifiy metodlar asosida qurildi. Nazariy tahlil yordamida pedagogik va psixologik manbalar o'rganildi, qiyosiy tahlil orqali Singapur tajribasi bilan mavjud yondashuvlar solishtirildi, tavsifiy metod asosida esa o'yin asosidagi ta'limning mazmuni, shakllari va amaliy ko'rinishlari yoritildi. Shuningdek, tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va rivojlantiruvchi ta'lim yondashuvlari tashkil etdi. Mazkur metodlar mavzuning ilmiy

mohiyatini ochib berish, ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish imkonini berdi.

NATIJJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tasavvur jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanishini tasdiqlaydi hamda uning o'quv faoliyati bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Boshlang'ich bosqichda o'quvchilarda asosan reproduktiv tasavvur ustunlik qiladi. Bu davrda ular o'qituvchi tomonidan berilgan yoki oldindan tanish bo'lgan obrazlarni qayta tiklashga moyil bo'lib, tasavvur faoliyati ko'proq tashqi ko'rsatmalarga bog'liq holda amalga oshadi. Ushbu holat rivojlanish psixologiyasida bolalarning bilish faoliyati dastlab konkret obrazlarga tayanishi haqidagi ilmiy qarashlar bilan mos keladi.

Keyingi bosqichlarda tasavvur jarayonida sifat jihatidan o'zgarishlar kuzatilgan. Xususan, o'quvchilar asta-sekin mustaqil ravishda yangi obrazlar yaratishga, berilgan vaziyatlarni o'ziga xos tarzda talqin etishga harakat qila boshlaydilar. Bu jarayon tasavvurning ijodiy shakllari rivojlanayotganidan dalolat beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijodiy tasavvur elementlarining paydo bo'lishi o'quvchilarning nutqiy rivojlanishi, tafakkur operatsiyalarining murakkablashuvi hamda o'quv topshiriqlarining mazmuni bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, tajriba jarayonida qo'llanilgan ijodiy va muammoli topshiriqlar o'quvchilarning tasavvur faoliyatini faollashtirishda samarali vosita ekanligi aniqlangan. Bunday topshiriqlar o'quvchilarni nafaqat mavjud bilimlarni qayta tiklashga, balki ularni yangi vaziyatlarda qo'llashga undagan. Natijada, tasavvur jarayoni reproduktiv darajadan ijodiy darajaga o'tish imkoniyatiga ega bo'lgan. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni hal etish va yangilik yaratish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Olingan natijalar ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy qarashlar bilan uyg'unlikda izohlanadi. Shu bilan birga, kichik maktab yoshida tasavvurning rivojlanishi uzluksiz va dinamik jarayon bo'lib, u o'quvchilarning individual xususiyatlari hamda pedagogik ta'sir vositalariga bog'liq holda turlicha namoyon bo'lishi aniqlangan.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida tasavvurni rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli pedagogik yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, integrativ yondashuv, fanlararo aloqadorlik, o'yin va ijodiy faoliyat elementlarini o'quv jarayoniga kiritish o'quvchilarning tasavvurini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Shu asosda, ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning ijodiy faolligini qo'llab-quvvatlash zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tasavvur jarayonining shakllanishi murakkab, ko'p bosqichli va o'quv faoliyati bilan chambarchas bog'liq jarayon ekanligini ko'rsatgan. Mazkur natijalar boshlang'ich ta'lim amaliyotini takomillashtirish hamda o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tasavvur jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanadigan murakkab psixik hodisa hisoblanadi. U reproduktiv bosqichdan ijodiy bosqichga o'tish orqali o'quvchilarning bilish va ijodiy faoliyatini kengaytiradi. Tasavvurni rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, muammoli ta'lim va ijodiy topshiriqlardan foydalanish samarali natija beradi. Shu bois boshlang'ich ta'lim jarayonida tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuv zarur hisoblanadi.

Ushbu maqola kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tasavvur jarayonining shakllanish bosqichlarini nazariy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlandi. O'rganishlar natijasida tasavvur bolalarning bilish faoliyatida muhim o'rin tutishi va ularning psixik rivojlanishida asosiy omillardan biri ekanligi aniqlandi. Xususan, kichik maktab yoshida tasavvur dastlab

reproduktiv xarakterda namoyon bo'lib, o'quvchilarning mavjud bilim va tajribalarni qayta tiklashiga asoslanadi. Keyingi bosqichlarda esa u ijodiy shaklga o'tib, yangi obrazlar yaratish va mustaqil fikrlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasavvur jarayonining rivojlanishi o'quv faoliyati mazmuni, pedagogik yondashuvlar hamda qo'llaniladigan metodlarga bevosita bog'liq. Muammoli ta'lim, ijodiy topshiriqlar va o'yin texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda tasavvurning faollashuvi va ijodiy fikrlashning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, tasavvurning shakllanishi uzluksiz va bosqichma-bosqich kechuvchi jarayon bo'lib, u o'quvchilarning individual xususiyatlari hamda ijtimoiy-pedagogik muhit bilan chambarchas bog'liq ekani aniqlandi. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim jarayonida tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan tizimli va maqsadli ishlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar natijasi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tasavvur jarayonini rivojlantirish ularning ijodiy salohiyatini oshirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish hamda ta'lim samaradorligini kuchaytirishda muhim omil ekanligini tasdiqlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бозхович Л. И. Личност и её формирование в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 2008.
2. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 256 b.
3. Karimova V. M. Psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
4. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001.
5. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2002.
6. Вйготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 1991. – 93 с.